



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING  
KO'P TARMOQLI KLINIKASI  
B U Y R U Q**

“25” 09 2025

№ 90

**Klinikaning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki meyoriy  
hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 08-iyuldagi “Sog'liqni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki meyoriy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 203-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 08-iyuldagi “Sog'liqni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki meyoriy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 203-sonli buyrug'i asos va amalda ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyati 2-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasining aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 7-ilovaga muvofiq;



-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida Korrupsiyaga qarshi tartib-tamoyillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyati 8-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 9-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamenti 10-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma 11-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasi xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom 12-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida Korrupsiyaga oid huquq buzarlari haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom 13-ilovaga muvofiq;

-Toshkent Davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida nizom 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat Nizomi 1-ilovaga hamda bo'limi boshlig'i va yetakchi mutaxassis lavozim yo'riqnoma 2-3-ilovalariga muvofiq tasdiqlansin.

4. Sog'liqni saqlash vazirining "2022-yil 1-martdagi 71-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Klinikaning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi (Z.SH.Ortiqov)ga Vazir buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda klinikaning ichki meyoriy hujjatlari asosida 1 oylik muddatda:

- Har bir xodim kesimida tanishtirish ishlarini tashkil etish;
- Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda vazirlikning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasiga ma'lumot taqdim etish.

6. Klinika muassasasi rahbarlari ichki meyoriy hujjatlar ijrosi bo'yicha nazoratni doimiy ravishda ta'minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Bosh shifokor**

**D.A.Rustamova**